



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UO'K (UDK):

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BADIY MATNLARNI TAHLIL QILISH: GLOBALLASHUV OMILLARINING TA'SIRI

Oymatova Nilufar Mirjamolovna

ORCID: 0009-0006-3790-390X

"Profi University" dotsent v.b.,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com Tel: + 99897 783 10 31

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilish jarayoniga globallashuv omillarining ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar va multimedia resurslari hamda va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda talabalarning tanqidiy fikrlash, qiyosiy va madaniyatlararo tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida "Qiyosiy tahlil" metodi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, badiiy matn, adabiy tahlil, globallashuv, elektron ta'lim platformalari, tanqidiy fikrlash.

АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье на основе научных источников проанализировано влияние факторов глобализации на процесс анализа художественных текстов в условиях цифровой образовательной среды. В исследовании использованы методы анализа и синтеза, сравнительного анализа, системного подхода и педагогического наблюдения. Раскрыты возможности цифровых образовательных платформ, электронных библиотек, мультимедийных ресурсов и средств искусственного интеллекта в развитии у студентов навыков критического мышления, сравнительного анализа и межкультурной интерпретации. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, основанные на методе «Сравнительный анализ», направленные на совершенствование процесса изучения художественных текстов в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, художественный текст, литературный анализ, глобализация, критическое мышление.

ANALYSIS OF LITERARY TEXTS IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT: THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION FACTORS

Abstract: *This article analyzes, based on scholarly sources, the impact of globalization on the process of analyzing literary texts in the digital learning environment. The study employs the methods of analysis and synthesis, comparative analysis, a systematic approach, and pedagogical observation. The findings highlight the potential of digital learning platforms, digital libraries, multimedia resources, and artificial intelligence tools for developing students' critical thinking, comparative analysis, and intercultural interpretation skills. As a result of the study, practical recommendations based on the Comparative Analysis method are proposed for improving the teaching of literary texts in a digital educational environment.*

Keywords: *digital educational environment, literary text, literary analysis, globalization, critical thinking.*

KIRISH

Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, multimedia resurslari va interaktiv o'quv vositalarining keng qo'llanilishi badiiy matnni o'qish va anglash jarayonining mazmuni hamda metodikasiga muayyan o'zgarishlar kiritmoqda: an'anaviy bosma matn bilan ishlash tajribasi interaktiv, gipermatnli va multimodal o'qish shakllari bilan boyimoqda, bu esa adabiy ta'limda qo'llanilayotgan yondashuvlarni zamonaviy ehtiyojlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, globallashtirish omillari ta'sirida kitobxonlik madaniyati, axborotni qabul qilish usullari va mutolaa odatlari ham yangilanib bormoqda. Raqamli ta'lim muhiti talabalarga badiiy asarlar bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda: elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar, annotatsiya vositalari va virtual ta'lim platformalari matnni o'qish hamda tahlil qilish jarayonini yanada qulay tashkil etishga xizmat qilmoqda. Ammo ushbu imkoniyatlardan pedagogik maqsadlarga muvofiq foydalanish, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va badiiy matnni yuzaki emas, chuqur anglashga yo'naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim tizimida adabiy ta'lim talabalarda badiiy matnni ilmiy-nazariy asosda o'qish, estetik idrok etish va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy mutaxassisdan nafaqat asar mazmunini tushunish, balki uni tarixiy-madaniy kontekstda baholash, turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilish va raqamli

axborot muhitida mavjud manbalardan samarali foydalanish talab etiladi [1]. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi – raqamli ta'lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilishning uyg'unlashgan metodik modeli, jumladan, "Qiyosiy tahlil" metodi taklif etilganligidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'lim tizimida raqamli va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish masalasi yuzasidan xorijiy tadqiqotchilardan A.W.Bates raqamli ta'lim muhitida texnologiyaning samaradorligi uning o'zida emas, balki pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llanilishida ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, raqamli vositalar talabalarning mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim [5]. UNESCOning "Guidance for Generative AI in Education and Research" hujjatida generativ sun'iy intellektni ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda qo'llashda inson markazli yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilanadi; undan foydalanishda akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi va etik me'yorlarga qat'iy rioya etilishi zarurligi ta'kidlanadi [6].

Badiiy matnni tahlil qilishning nazariy-metodik asoslari, tahlil bosqichlari va ta'limiy vazifalari Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida atroflicha yoritilgan [1]. R.A.Keldiyorov tadqiqotida adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari, jumladan, o'qituvchining kasbiy-ma'naviy sifatlariga qo'yiladigan talablar asoslab berilgan [2]. M.Y.Ro'ziyeva esa raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillarini tahlil qilar ekan, milliy tilning raqamli muhitda mustahkamlanishi ta'lim, iqtisod va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [4]. S.Lukmonova real vaqt rejimidagi teskari aloqa mexanizmlarining o'quv jarayonini talabalar ehtiyojiga moslashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi [3].

Ko'rinadiki, ushbu tadqiqotlar ayrimlari an'anaviy adabiy tahlil metodikasining nazariy zaminini tashkil etsa, ayrimlari esa zamonaviy raqamli ta'lim tizimining muayyan jihatlarini yoritishga yo'naltiriladi. Shunga qaramay, ushbu sohada, ya'ni

globallashuv omillari kontekstida, xususan, generativ sun'iy intellekt vositalari bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta ko'rib chiqilishi hali yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur maqola esa shu jihatlarni to'ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb sanaladi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi maqolaning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib belgilandi. Unda globallashuv hamda raqamli ta'lim muhiti sharoitida badiiy matnlarni tahlil qilishning o'ziga xos didaktik jihatlari hisobga olindi. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni izchil hal etish uchun umumilmiy hamda maxsus pedagogik metodlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanildi.

Tadqiqotda umumnazariy va maxsus metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez metodi ilmiy manbalardagi qarashlarni tizimlashtirish uchun, qiyosiy tahlil metodi mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni solishtirish uchun, tizimli yondashuv raqamli ta'lim muhiti tarkibiy elementlarini o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqish uchun, pedagogik kuzatish metodi esa "Qiyosiy tahlil" metodining amaliyotga tatbiq etilishi jarayonini o'rganish uchun qo'llanildi. Tadqiqot manbalari sifatida ilmiy adabiyotlar hamda badiiy asar (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani) misolida amalga oshirilgan tahlil natijalari ishlatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish talabalarning o'quv faolligini oshirish bilan birga, badiiy matnni ko'p qirrali tahlil qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bunday yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarishi va tahlil qilish jarayonlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, alohida ta'kidlash joizki, axborot manbalarining ko'pligi talabalarda ma'lumotlarni saralash va ishonchliligini baholashda qiyinchilik tug'diradi, elektron matnlarni tezkor o'qish odati esa asarning estetik-g'oyaviy qatlamlarini chuqur anglashni cheklashi mumkin. Bizningcha, bu ikki tomonlama ta'sir, ya'ni imkoniyat va xavf raqamli vositalardan

foydalanishni an'anaviy mutolaa madaniyati va ilmiy tahlil metodlari bilan muvozanatli uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Kuzatishlarga ko'ra aytish mumkinki, raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish, agar u tayyor javob manbai emas, balki talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida qo'llanilsa, yuqori pedagogik samara beradi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot mashg'ulotlarida "Qiyosiy tahlil" metodidan foydalanish ham yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi. Mazkur metodni Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani misolida ko'rib chiqish mumkin: talabalar dastlab romandagi milliy istiqloq g'oyasining badiiy ifodasini mustaqil tahlil qiladi, so'ngra sun'iy intellekt vositasiga xuddi shu mavzuni obrazlar tizimi va badiiy vositalar asosida tahlil qilish topshirig'ini beradi. Olingan natijalar talabaning shaxsiy tahlili bilan qiyoslanadi, o'xshash va farqli jihatlar ilmiy mezonlar asosida muhokama qilinadi.

1-jadval.

"Qiyosiy tahlil" metodining dars bosqichlari

Dars bosqichi	O'qituvchi faoliyati	SI vositasi	Shakllanadigan kompetensiya
Mustaqil mutolaa	Asarni o'qish va savollar berish	-	Mutolaa kompetensiyasi
Birlamchi tahlil	Talaba mustaqil tahlil yozadi	-	Analitik fikrlash
SI bilan ishlash	Tahlil uchun prompt tuzish	ChatGPT, Gemini va boshqalar	Raqamli kompetensiya
Qiyosiy interpretatsiya	SI javobi va talaba tahlilini taqqoslash	SI natijasi	Tanqidiy fikrlash
Yakuniy xulosa	Mustaqil interpretatsiya yozish	-	Interpretativ kompetensiya

Bunday yondashuv talabalarning sun'iy intellekt taqdim etgan ma'lumotni tanqidiy baholash, uning ilmiy asoslanganligi va badiiy matnga mosligini tekshirish, dalillarni qayta hamda mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada sun'iy intellekt tayyor javob manbai emas, balki badiiy matnni chuqurroq anglashga xizmat qiladigan yordamchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, globallashuv omillari milliy va jahon adabiyoti namunalarini qiyosiy o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa talabalarning madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini rivojlantirish va turli adabiy maktablarni qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi.

2-jadval.

An'anaviy topshiriq va sun'iy intellekt integratsiyalashgan topshiriqning didaktik qiyosi

An'anaviy topshiriq	SI integratsiyalashgan topshiriq	Shakllanadigan kompetensiya
"Muvozanat" romanida Yusuf obraziga tavsif bering.	Dastlab Yusuf obrazini mustaqil tahlil qiling, so'ng sun'iy intellektdan ayni obraz tahlilini oling va ikki tahlilni qiyoslab, farqli jihatlarni dalillar bilan izohlang.	Tanqidiy fikrlash, qiyosiy tahlil, dalillash kompetensiyasi
Asardagi ramziy timsollarni aniqlang.	Sun'iy intellekt aniqlagan ramziy timsollarni asar matni bilan solishtirib, qaysi talqinlar matnga mos yoki nomosligini asoslang.	Interpretatsiya, tahliliy fikrlash
Asarning asosiy g'oyasi hisoblangan	Mustaqil xulosa chiqaring va uni SI tomonidan berilgan xulosa bilan	Mustaqil xulosa chiqarish, dalillar bilan ishlash

muvozanat qaysi o'rinlarda buzilganini dalillar asosida izohlang.	qiyoslab, ilmiy asoslangan yakuniy fikrni shakllantiring.	
Yusuf va Amir obrazlarini qiyoslang.	SI tahlili bilan o'z tahlilingizni solishtirib, obrazlarning g'oyaviy vazifasi yuzasidan yakuniy ilmiy xulosa tayyorlang.	Qiyosiy tahlil, muammoli fikrlash
Romandagi milliy istiqlol g'oyasini tahlil qiling.	SI yordamida olingan javobni badiiy matndagi dalillar bilan tekshirib, qaysi xulosalar asosli ekanini baholang.	Axborotni tanqidiy baholash, media va AI savodxonligi

Jadvalda keltirilgan model shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni an'anaviy topshiriqlarga integratsiya qilish ularni murakkablashtirishni emas, balki talabning tahliliy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni ta'minlaydi. Bunday yondashuvda sun'iy intellekt yakuniy javob beruvchi vosita emas, balki talabning mustaqil tahlili, dalillashi va tanqidiy fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi didaktik resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani bunday metodni qo'llash uchun qulay didaktik material hisoblanadi. Asarda ijtimoiy-falsafiy mazmunning ustuvorligi, ko'p qatlamli obrazlar tizimi hamda tog', qor, daryo, eski kema, ko'priq kabi ramziy timsollarning izchil qo'llanishi talabalarga badiiy matnni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Roman qahramonlari – Yusuf, Muhammadjon aka, Amir, Zahro va boshqa obrazlarning hayotiy qarashlari hamda ichki ziddiyatlarini sun'iy intellekt vositasi yordamida olingan tahlillar bilan qiyoslash talabalarda matnga qayta murojaat qilish, dalillarni tekshirish va mustaqil ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, asardagi ramziy obrazlar va falsafiy g'oyalarni talqin etishda sun'iy intellekt umumiy mazmundagi izohlarni bera olishi, ammo ayrim badiiy detallar

hamda ramziy qatlamlarni to'liq ochib bera olmasligi kuzatiladi. Shu sababli badiiy matnni anglash jarayonida talabanning mustaqil tahlili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti adabiyot o'qituvchisining metodik faoliyatiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Bizningcha, endilikda o'qituvchi nafaqat badiiy matnni tahlil qilish metodlarini, balki raqamli ta'lim resurslarini pedagogik maqsadga muvofiq tanlash, ulardan samarali foydalanish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarur.

Xulosalar (Conclusions)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, globallashtirish va raqamli ta'lim muhiti sharoitida badiiy matnlarni o'qitish an'anaviy metodlarni inkor etishni emas, balki ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan metodik jihatdan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ayniqsa, badiiy matnni qiyosiy tahlil qilish jarayonida raqamli resurslardan maqsadli foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ilmiy mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli resurslar talabalarning axborot izlash, qiyosiy tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratar ekan, uning samaradorligi texnologiyaning o'zi bilan emas, balki metodik jihatdan asoslangan yondashuv, o'qituvchining kasbiy mahorati va talabanning faol ishtiroki bilan belgilanishini alohida ta'kidlash zarur. "Qiyosiy tahlil" metodi kabi yondashuvlar sun'iy intellektni mustaqil javob manbai emas, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida joriy etishning amaliy namunasi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jihatlarning barchasini inobatga olgan holda, biz quyidagilarni taklif sifatida e'tirof etdik:

Elektron kutubxona va ta'lim platformalarini qiyosiy, lingvopoetik tahlil metodlari bilan uyg'unlashtirish badiiy matnni har tomonlama o'rganish imkonini beradi; talabalarga elektron manbalarni saralash, ularning ilmiy ishonchliligini baholash va mos ravishda tanlash ko'nikmalarini o'rgatish zarur; milliy va jahon adabiyoti

namunalarini qiyosiy o'rganish orqali talabalarning madaniyatlararo muloqot va estetik qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
2. Keldiyorov R.A. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari (O'qituvchi kasbiy-ma'naviy sifatleri asosida): Ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001. – 137 b.
3. Lukmonova S. Ta'lim jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari // International journal of scientific researches. Volume 8, issue 1, 2024. – P. 771.
4. Ro'ziyeva M.Y. Raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari // O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari va muammolari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025. – B. 9.
5. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – 2019.
6. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – P. 64.

REFERENCES

1. Khusanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi [Methodology of teaching literature]. – Tashkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 p. (in Uzbek)
2. Keldiyorov R.A. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari [Scientific and methodological foundations for improving the effectiveness of literature lessons]: PhD diss. – Tashkent, 2001. – 137 p. (in Uzbek)
3. Lukmonova S. Ta'lim jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari [Opportunities for using digital educational resources in the educational process]. International Journal of Scientific Researches. 2024, Vol. 8, Issue 1. – P. 771.
4. Ruziyeva M.Y. Raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari [Formation and development factors of the digital education process]. In: Prospects and problems of using digital education technologies in the development of education in Uzbekistan: Proceedings of the Republican scientific-practical conference. – Bukhara: Sadridin Salim Bukhoriy, 2025. – P. 9. (in Uzbek)
5. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. 2019.
6. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. – P. 64.